

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

AVGUST 8-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, avgust.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA SANOATLASHUVNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	9
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
ALIGNING NATIONAL AND INTERNATIONAL UNIVERSITY RANKING INDICATORS: A CROSSWALK METHODOLOGY.....	16
Mamajonova Mukhlisakhon Muzaffar kizi	
O'ZBEKISTONDA ENERGETIKA TIZIMINI RAQAMLASHTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	28
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA INNOVATSION BOSHQARUVNI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASINI RIVOJLANTIRISH	34
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o'g'li	
SANOAT KORXONASINING ATROF-MUHIT VA AHOLI SOG'LIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH.....	40
Imomnazarov Farrux Saibjabbor o'g'li	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARI RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY HOLATI VA TAHLILI	44
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich	
MACHINE LEARNING-ASSISTED PREDICTION OF FIRE-RETARDANT AND PRESERVATIVE PERFORMANCE OF CHEMICALLY MODIFIED WOOD: AN ECO-FRIENDLY APPROACH.....	52
Usmanova Maftunakhon Abror qizi	
TEMIR YO'L AVTOMATIKA VA TELEMEXANIKA MAYDON QURILMALARINI MASOFAVIY NAZORAT QILISH ISHONCHLILIGINI UYALI ALOQA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA OSHIRISH.....	60
Botirov Abdulaziz Temir o'g'li	
QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'IDA NOL STAVKANI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	66
A.A. Bobomurodov	
KERAMIKA ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MEHNAT SHAROITLARINI SANITAR-GIGIYENIK VA INTEGRAL BAHOLASH («OZIQ-OVQAT STANDART KARTON» MCHJ TARKIBIDAGI «TOSHKENT KAFEL» KORXONASI MISOLIDA)	71
S. Sulaymanov, N.A. Erdonova	
PYTHON-BASED NUMERICAL ANALYSIS OF THE LOGISTIC POPULATION GROWTH MODEL	76
Berdiyev Shohjahon, Khayitova Fayza	
O'ZBEKISTONDA NORASMIY VA YASHIRIN IQTISODIYOT HAJMIGA SOLIQ OMILINING TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL	85
Fayziyeva Nargiza Rabimovna	
ISHLAB CHIQUARISH KICHIK BIZNESINI HUDUDIY JOYLASHTIRISH OMILLARI VA IXTISOSLASHUV YO'NALISHLARINI BAHOLASH	93
Salimov Burxoniddin	
OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING TASHKILIIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	98
Ixtiyorov Bekzod Zulfiqor o'g'li	
CHUQUK O'RGANISH ARXITEKTURALARI ASOSIDA O'ZBEK TILIDAGI SOXTA XABARLARNI ANIQLASH ALGORITMINI ISHLAB CHIQUISH	105
Uzoqov Lochinbek Mamurjon o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA INNOVATSION BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH	111
Almanov Ilhom Sultonovich	



TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
TIBBIY XIZMAT KO'RSATUVCHI KORXONALAR IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	118
O'roqov Firdavs Ortiqniyoz o'g'li	
EKSPORTGA YO'NALTIRILGAN ISHLAB CHIQRISHNI MAXSUS IQTISODIY ZONALARDA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI	125
Iskandarova Dilorom Xayrullayevna	
KORXONALARDA BULUTLI HISOBLASH TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING GLOBAL VA MILLIY AMALIYOTI TAHLILI	130
Jumaev Sohib Baxodirovich	
YOSHLARNING RAQAMLI SAVODXONLIGINI IQTISODIY FAROVONLIKKA KONVERSIYA QILISHNING STRATEGIK BOSHQARUV MEKANIZMI	136
Palvonova Sevara Baxromovna	
QISHLOQ XO'JALIGI VAZIRLIGI TIZIMIDA INSON KAPITALINI BOSHQARISHNING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	141
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	
ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА КАК ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ И НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ.....	148
Mўminjonov Anvarbek Сайфитдин угли	
NOQISHLOQ XO'JALIGINING TOMORQA XO'JALIGI FAOLIYATIGA TA'SIRINI BAHOLASHDA ILMIY- USLUBIY YONDASHUVLAR	156
Nurullayev Ulug'bek	
TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA SOLIQ IMTIYOZLARINING ROLI	161
Karimova Dilafruz Sadirdin qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KREATIV XIZMATLAR BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	166
Xamroyeva Sitara Otabekovna	
ОЦЕНКА ТЕХНИКО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ И ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ СТАНЦИИ, ИНТЕГРИРОВАННОЙ С МАГИСТРАЛЬНЫМИ ВОДОКАНАЛАМИ.	172
Юлдошев Исроил, Ботиров Бозорбек, Жураев Обид, Курбанов Юнус, Хамдамова Ирода, Атоева Мохинур	
SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMIDA KLINIK VA BOSHQARUV QARORLARINI QO'LLAB-QUVVATLOVCHI RAQAMLI PLATFORMALARNI RIVOJLANTIRISH	185
Turayeva Nafisa Odiljonovna	
BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIVAVIY XATO VA NOMUVOFIQLIKLARNING TARKIBIY KO'RINISHLARI HAMDA ULARNI ANIQLASH AMALIYOTI TAHLILI	190
Mulayev Farxod Alisherovich	
SANOATDA PORSHENLI KOMPRESSORLARNING TEXNIK-IQTISODIY SAMARADORLIGINI TA'MINLASHDA ASOSIY MUAMMOLAR TAHLILI	195
Abdixakimova Malika Amir qizi	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIBBIY INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH: RAQAMLI KOMPETENSIYALAR VA TA'LIM TRANSFORMATSIYASI	207
Nazarov Baxrom Mustafayevich	
O'ZBEKISTONDA BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	213
Qahramonova Maftuna Davronovna	



XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MIJOZLARGA XIZMAT KO'RSATISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	220
Jamalova Dilnoza Egamberdiyevna	
KO'P FAKTORLI AVTENTIFIKATSIYA VA KRIPTOGRAFIK HIMOYA MEKANIZMLARI ASOSIDA AXBOROT TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI OSHIRISH	227
Babakulov Bekzod Mamatkulov	
AHOLIGA ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI TIZIMLI RIVOJLANTIRISHNING EMPIRIK TADQIQOTI	234
Nasrullayev Feruz	
SOLIQDAN BO'YIN TOVLASH HOLATLARINI KAMAYTIRISHDA SOLIQ TO'LOVCHILARNING SOLIQ XAVFINI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	238
Ismailov Bobir Salomovich	
ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ И РЕЖИМОВ РАБОТЫ ГИБРИДНОЙ СОЛНЕЧНО-КОТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ ТЕПЛОСНАБЖЕНИЯ В КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ САМАРКАНДСКОЙ ОБЛАСТИ..	245
Файзиев Зафар, Юзбаева Шохид	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIKNI RIVOJLANTIRISH: INSTITUTSIONAL ASOSLAR, INVESTITSIYAVIY IMKONIYATLAR VA IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIK.....	250
Sh. Qurbonova	
XULQ-ATVORGА ASOSLANGAN SUG'URTA KONSEPSIYASI ORQALI SUG'URTA TARIFLARINI PERSONALLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	260
Xakimzoda Maftuna Yusuf qizi	
MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA TURIZMNING O'RNI VA AHAMIYATI	265
N.K. Muxitdinova, Raxmatova Sevinch	
YUQORI TEXNOLOGIYALI SANOAT TARMOQLARIDA QO'SHILGAN QIYMATNI OSHIRISH MASALALARI: O'ZBEKISTON VA JANUBIY KOREYA TAJRIBASI MISOLIDA	269
Ashirmetova Ozoda Farxod qizi	
KINEMATIC SIMULATION OF SPINDLE AND PRESSING-SECTOR MOTION IN AN ELLIPTICAL-DRUM VERTICAL-SPINDLE COTTON PICKER.....	277
Rajapbayev Umidjon Alisher o'g'li	
O'ZBEKISTONDA INNOVATSION MAHSULOTLARGA ICHKI TALABNI SHAKLLANTIRISH VA ILMIY ISHLANMALARNI TIJORATLASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	283
Azizova Maliha Farrux qizi	
AGLOMERATSIYALAR VA YIRIK SHAHARLAR ATROFIDAGI HUDUDLARNI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING SHAHARSOZLIK MODEL I	290
Azamiddin Quldashev	
ZAMONAVIY SHAHARLAR EKOLOGIK INFRATUZILMASINING XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	295
Jo'rayev Muxriddin, Olimova Mohinur, Tugalov Bobur	
BYUDJET YO'QOTISHLARINING JARAYONLI LOKALIZATSIYASI: DAVLAT XARIDLARI TRANSAKSION SIKLINING XARITASI (PROCESS MAPPING).....	301
Jasur Nurmatov	
QUYOSH ENERGIYASI ASOSIDAGI ISSIQXONA MIKROIQLIMINI TA'MINLASH QURILMASINING PARAMETRLARI VA ISH REJIMLARINI OPTIMALLASHTIRISH.....	307
Qulboyev Zohid Xo'jamuradovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA SANOATLASHUV DARAJASINING ZAMONAVIY HOLATI VA TARKIBIY O'ZGARISHLARI	312
Erkayev Akrom Normuxammadovich	
RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA HUDUDIY INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIKNI OSHIRISH VA INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	317
Muxamadjanov Shaxriyor Solijon o'g'li	



ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПРОЕКТНОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ И ЛИЗИНГА ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	324
Исомов Б.С.	
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНАЯ ВЕРИФИКАЦИЯ МАТЕМАТИЧЕСКОЙ МОДЕЛИ ИСПАРИТЕЛЬНОГО ОХЛАЖДЕНИЯ ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКОГО МОДУЛЯ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА.....	330
Ботиров Бозорбек, Тураев Фарходжон	
KAM RESURSLI TILLARDAGI ILMIY JURNALLAR UCHUN METAMA'LUMOTLARNI AVTOMATIK EKSTRAKSIYA QILISH VOSITASI.....	336
Rashid Turgunbaev	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПИЛЬНОГО ОЧИСТИТЕЛЯ ВОЛОКНА.....	342
Дадажанов Арафатали Комилжанович	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	348
Yorqin Khudoyiberdiev	
INVESTMENTS AND SUSTAINABLE DEVELOPMENT	352
Yorqin Khudoyiberdiev	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY XIZMATLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EMPIRIK TAHLIL QILISH	360
Ergashev Azizxon Avazxon o'g'li	
ELEKTRON BANK XIZMATLARINI AUDIT QILISHNING ZAMONAVIY USULLARI	365
To'rayeva Farida Rustam qizi	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA KAPITAL BOZORI VOSITALARI ORQALI MOLIVALASHTIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	369
Qurbonov Javlonbek, Farxodova Aziza	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ ВНЕДРЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	374
Сейдеметова Эльмира Оралбай кизи	
TIJORAT BANKLARI KAPITALLASHUVI VA DAROMADLARINING PROGNOZI	378
Tursunov Mustafo Mirzayevich	
XIZMATLAR SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA AHOLI FAROVONLIGINI TA'MINLASHNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	385
Raximov Zafar Komilovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLAGI DINAMIKASINI STATISTIK TAHLIL QILISH	392
Akbarova Barno Shuxratovna	
BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI STRATEGIK BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	398
Bazarov Diyor Gafurovich	
UZUN QOZIQLI BARABAN QOZIQLARI ILIB OLGAN PAXTA BO'LAKLARINING OG'ISH YOYINI ANIQLASH	406
R.K. Djamalov, Karimov Maxmud Raxmatovich	
TIJORAT BANKLARI OMONATLARINING MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI	411
Shodiyev Odiljon Salim o'g'li	



UDK 332.1(330.322.1)

TIJORAT BANKLARI OMONATLARINING MINTAQA IQTISODIYOTIGA TA'SIRI

Shodiyev Odiljon Salim o'g'li

QDU mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0009-0006-7572-4793

Annotatsiya. O'zbekiston Respublikasidagi tijorat banklarining depozit va kredit operatsiyalari dinamikasi barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hamda ichki investitsiya resurslarini shakllantirishning muhim omili sifatida ko'rib chiqilgan. Mavzuning dolzarbligi moliya tizimini modernizatsiya qilish sharoitida uy xo'jaliklari va biznes subyektlari jamg'armalarini samarali investitsiyalarga aylantirish samaradorligini oshirish zarurati bilan belgilanadi. Tijorat banklarining kredit va depozit portfellari tuzilishi batafsil tahlil qilinib, davlat ishtirokidagi va xususiy banklar o'rtasidagi farqlarga e'tibor qaratilgan. Statistik ma'lumotlar asosida jalb qilingan va joylashtirilgan mablag'lar o'rtasidagi nisbat baholanib, bank sektorining moliyalashtirish manbalari tarkibidagi asosiy tendensiyalar aniqlangan. Kredit-depozit nisbatini, shuningdek, mijozlar toifalari (jismoniy va yuridik shaxslar) bo'yicha majburiyatlar tuzilishini hisoblashda statistik, qiyosiy va nisbat tahlili usullaridan foydalanilgan. Tadqiqot natijalari davlat ishtirokidagi banklarda aktivlarning yuqori konsentratsiyasini hamda kredit risklarini samarali boshqarishda uzoq muddatli depozitlar bazasini yanada kengaytirish imkoniyatlarini mavjudligini ko'rsatadi. Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, chakana depozit mahsulotlarini takomillashtirish va bank sektorida raqobatni rag'batlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning amalga oshirilishi makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va milliy iqtisodiyotning moliyaviy barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tijorat banklari, omonatlar, kreditlar, moliyalashtirish manbalari, bank likvidligi, moliyaviy barqarorlik, jamg'armalarni transformatsiya qilish.

Abstract. The dynamics of deposit and lending operations of commercial banks in the Republic of Uzbekistan are examined as an important factor in ensuring sustainable economic growth and generating domestic investment resources. The relevance of the topic is determined by the need to improve the efficiency of transforming household and business savings into productive investments amid the modernization of the financial system. The structure of commercial banks' loan and deposit portfolios is analyzed in detail, with particular attention paid to differences between state-owned and privately owned banks. Based on statistical data, the ratio between attracted and allocated funds is assessed, and key trends in the structure of the banking sector's funding sources are identified. Statistical, comparative, and ratio analysis methods are employed to calculate the loan-to-deposit ratio (LTD), as well as to examine the structure of liabilities by client category (individuals and legal entities). The results indicate a high concentration of assets in state-owned banks and demonstrate opportunities for further expanding the long-term deposit base to support effective credit risk management. Evidence-based recommendations are developed for diversifying funding sources, improving retail deposit products, and promoting competition in the banking sector, the implementation of which can contribute to strengthening macroeconomic stability and enhancing the financial stability of the national economy.

Keywords: commercial banks, deposits, loans, funding sources, bank liquidity, financial stability, savings transformation.

Аннотация. Динамика депозитных и кредитных операций коммерческих банков Республики Узбекистан рассматривается как важный фактор обеспечения устойчивого экономического роста и формирования внутренних инвестиционных ресурсов. Актуальность темы определяется необходимостью повышения эффективности трансформации сбережений домашних хозяйств и субъектов предпринимательства в продуктивные инвестиции в условиях модернизации финансовой системы. Подробно проанализирована структура кредитных и депозитных портфелей коммерческих банков с особым вниманием к различиям между банками с государственным участием и частными банками. На основе статистических данных оценено соотношение между привлечёнными и размещёнными средствами, а также выявлены основные тенденции в структуре источников финансирования банковского сектора. Для расчёта соотношения кредитов и депозитов (LTD), а также анализа структуры обязательств по категориям клиентов (физические и юридические лица) применены статистический, сравнительный методы и метод анализа соотношений. Результаты исследования свидетельствуют о высокой концентрации активов в банках с государственным участием и наличии возможностей для дальнейшего расширения базы долгосрочных депозитов в целях эффективного управления кредитными рисками. Разработаны научно обоснованные рекомендации по диверсификации источников финансирования, совершенствованию розничных депозитных продуктов и стимулированию конкуренции в банковском секторе, реализация которых будет способствовать укреплению макроэкономической стабильности и повышению финансовой устойчивости национальной экономики.

Ключевые слова: коммерческие банки, депозиты, кредиты, источники финансирования, банковская ликвидность, финансовая устойчивость, трансформация сбережений.

KIRISH

Tijorat banklari bozor iqtisodiyotida markaziy rol o'ynaydi va vaqtincha bo'sh turgan mablag'larni samarali qayta taqsimlashni ta'minlaydigan asosiy moliyaviy vositachilar bo'lib xizmat qiladi. Hozirgi makroiqtisodiy sharoitda O'zbekiston Respublikasi bank sektorining barqaror rivojlanishi moliya institutlarining barqaror va diversifikatsiyalangan resurs bazasini yaratish qobiliyatiga bevosita bog'liq. An'anaga ko'ra, jismoniy va yuridik shaxslarning depozitlari banklarning faol operatsiyalari uchun asosiy ichki moliyalashtirish manbai bo'lib xizmat qilgan. So'nggi yillarda kreditlashning o'sish sur'ati ichki jamg'armalarning o'sish sur'atidan yuqori bo'lib, bu banklarning likvidligini ta'minlashda tashqi qarz mablag'lari, suveren boylik fondlari yoki davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan.

Jamg'armalarni investitsiyalarga aylantirishning samarali mexanizmini ishlab chiqish bank tizimini isloh qilish strategiyasining uzoq muddatli ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Bozor islohotlari chuqurlashib, davlat korxonalari xususiyashtirilishi bilan tijorat banklarini davlat resurslarini taqsimlashdan mijozlar uchun bozor raqobatiga asoslangan an'anaviy tijorat faoliyatiga qayta yo'naltirish zarurati yuzaga kelgan. Depozitlar dinamikasi aholi va biznesning moliya tizimiga bo'lgan ishonch darajasini, shuningdek, ularning investitsiya faolligini aks ettiradi. Shu bilan birga, kredit portfelining tuzilishi iqtisodiyotning real sektoridagi rivojlanish tendensiyalarini ochib beradi.

Berilgan kreditlar va jalb qilingan depozitlar hajmi o'rtasidagi tafovut alohida muassasalar va umuman bank tizimining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyalashtirish manbalarini yanada diversifikatsiya qilish muhimligini ko'rsatadi. Ushbu tadqiqot O'zbekistondagi kredit va depozit bozorining hozirgi holatini har tomonlama tahlil qilish, davlat va xususiy banklar faoliyatidagi mavjud farqlarni aniqlash hamda muvozanatli iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun moliyalashtirish manbalari tuzilmasini optimallashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarining kredit va depozit mexanizmlarining nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy, rus va mahalliy iqtisodchilarning asarlarida keng yoritilgan.

G'arb iqtisodiy adabiyotlarida bank vositachiligining asosiy tamoyillari va depozitlarning kapital manbai sifatidagi roli klassik moliyaviy nazariyotchilarning asarlarida bayon etilgan. Jozef Stiglits o'zining "Davlat sektori iqtisodiyoti" [1, 245–260-betlar] asarida moliya bozoridagi axborot assimetriyasi banklarni qisqa muddatli depozitlarni uzoq muddatli kreditlarga aylantirishda risklarni minimallashtirishga qodir noyob institutlarga aylantirishini ta'kidlaydi. Frederik Mishkin o'zining mashhur "Pul, bank ishi va moliya bozorlari iqtisodiyoti" [2, 312–335-betlar] asarida bank likvidligi tushunchasini batafsil o'rganib, depozit bo'lmagan mablag' manbalaridan oqilona foydalanish banklarning tizimli barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Peter Rose va Silvia Hudgins ham o'zlarining "Bank boshqaruvi va moliyaviy xizmatlar" [3, 185–210-betlar] kitoblarida bank balansi tuzilmasini tahlil qilishga katta hissa qo'shganlar; unda resurs bazasining eng barqaror elementi sifatida chakana depozitlarni jalb qilish bo'yicha majburiyatlarni boshqarish usullari va strategiyalari batafsil bayon etilgan.

Rossiya iqtisodiy adabiyotlarida bu masalalar o'tish davri va rivojlanayotgan bozorlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ko'rib chiqiladi. O. I. Lavrushin o'zining "Bank ishi: Zamonaviy kreditlash tizimi" [4, 94–112-betlar] darsligida bank resurs bazasining barqarorligi mablag'larni jalb qilish muddati va ularni joylashtirish o'rtasidagi muvozanatga bog'liqligini ta'kidlaydi. Muallif depozit bazasining barqaror o'sishini ta'minlash kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish va bank likvidligini mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. G. G. Korobova o'zining "Bank ishi" [5, 204–222-betlar] asarida depozit majburiyatlari tuzilishini tahlil qiladi va uzoq muddatli investitsiya kreditlari uchun strategik resurs sifatida uy xo'jaliklari jamg'armalarining ahamiyatini ta'kidlaydi. E. F. Jukov o'zining "Pul. Kredit. Banklar" [6, 145–163-betlar] monografiyasida banklararo raqobat dinamikasini va uning depozit foiz stavkalari siyosatiga ta'sirini o'rganadi. O'zbek olimlari orasida banklarning resurs bazalarini rivojlantirish va ularning investitsiya salohiyatini oshirish masalalari bozor islohotlari kontekstida faol o'rganilmoqda. Sh. Z. Abdullaeva o'zining "Bank ishi" [7, 115–130-betlar] monografiyasida uy xo'jaliklari mablag'larini bank faoliyatiga jalb qilishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va milliy valyutaga bo'lgan ishonchni oshirish yo'llarini taklif qiladi. A. A. Omonov o'zining "Tijorat banklari kapitallashuvini oshirish yo'llari" [8, 78–95-betlar] asarida yetakchi banklar kapitalida davlat ishtirokining yuqori ulushi sharoitida chakana depozit bozoridagi faollikni yanada oshirish imkoniyatlariga e'tibor qaratadi. Makroiqtisodiy sharoitlarda likvidlikni boshqarish va kredit portfelini optimallashtirish masalalari ham T. M. Karalievning [9, 62–80-betlar] asarlarida batafsil tahlil qilingan bo'lib, u inflyatsion risklarni samarali boshqarish va uzoq muddatli resurslarni jalb qilish uchun moslashuvchan foiz stavkalarini joriy etish zarurligini ta'kidlaydi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi tizimli, qiyosiy va moliyaviy-iqtisodiy tahlil tamoyillariga asoslangan. Axborot bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining rasmiy statistik ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Qarz mablag'larining kreditlash manbalari sifatidagi balansi va samaradorligini baholash uchun kredit-depozit nisbati (LTD — Loan-to-Deposit Ratio) qo'llaniladi. U quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$LTD = (L_{\text{total}} / D_{\text{total}}) \times 100\% \quad (1)$$

Bu yerda L_{total} — berilgan kreditlarning umumiy hajmi, D_{total} — jalb qilingan depozitlarning umumiy hajmi. LTD qiymatining 100 foizdan yuqori bo'lishi bankning depozitlar bilan bir qatorda muqobil moliyalashtirish manbalaridan ham foydalanib, kreditlash imkoniyatlarini kengaytirayotganini ko'rsatadi.

Mijozlar toifalari (jismoniy va yuridik shaxslar) bo'yicha mablag' manbalari tuzilmasining nisbati ham hisoblanadi:

$$S_{\text{phys}} = (D_{\text{phys}} / D_{\text{total}}) \times 100\% \quad (2)$$

$$S_{\text{legal}} = (D_{\text{legal}} / D_{\text{total}}) \times 100\% \quad (3)$$

Bu yerda D_{phys} — jismoniy shaxslar depozitlari, D_{legal} — yuridik shaxslar depozitlari. Ushbu ko'rsatkichlar kredit portfeli uchun ham hisoblanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Batafsil tahlil uchun 1-jadvalda keltirilgan joriy statistik ma'lumotlarga murojaat qilamiz.

1-jadval.

Tijorat banklari depozitlari va kreditlari dinamikasi, mlrd. so'm¹

№	Bank nomi	Jami kreditlar	Shundan		Jami depozitlar	Shundan	
			jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar		jismoniy shaxslar	yuridik shaxslar
Jami		635 978	232 852	403 126	460 600	178 481	282 119
Davlat ulushi mavjud banklar		420 443	124 103	296 339	239 492	87 014	152 479
1	O'zmilliybank	107 490	23 508	83 982	55 326	18 738	36 588
2	Agrobank	90 857	19 915	70 942	41 839	21 518	20 321
3	O'zsanoat-qurilishbank	61 190	10 024	51 167	35 484	12 223	23 260
4	Asaka bank	40 161	11 863	28 298	22 370	9 810	12 560
5	Xalq banki	37 080	25 334	11 746	30 871	6 707	24 164
6	Biznesni rivojlantirish banki	25 466	14 365	11 101	15 976	5 585	10 390
7	Mikrokredit bank	22 560	9 581	12 979	11 675	3 235	8 441
8	Aloqa bank	21 051	5 666	15 386	16 750	6 317	10 433
9	Turon bank	14 586	3 847	10 739	9 202	2 881	6 321
Boshqa banklar		215 536	108 749	106 787	221 107	91 467	129 640

Bank tizimining umumiy ko'rsatkichlarini tahlil qilish faol va passiv operatsiyalar o'rtasidagi tarkibiy nisbatlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatadi. Berilgan kreditlarning umumiy hajmi 635 978 milliard so'mni, jalb qilingan depozitlarning umumiy hajmi esa 460 600 milliard so'mni tashkil etadi. Bank tizimi bo'yicha o'rtacha LTD koeffitsienti taxminan 138,1 foizni tashkil etadi. Bu depozitlar kredit portfelining 72,4 foizini qoplashini ko'rsatadi.

1 Muallif ishlanmasi

Qolgan 27,6 foiz yoki 175 000 milliard soʻmdan ortiq mablagʻ tashqi kreditlar, xalqaro moliya institutlarining kredit liniyalari va hukumatning toʻgʻridan-toʻgʻri investitsiyalari hisobidan moliyalashtiriladi.

Ushbu nisbat, ayniqsa, davlat ishtirokidagi banklar guruhida yaqqol namoyon boʻladi. Ularning umumiy kreditlari 420 443 milliard soʻmni, yaʼni tizim boʻyicha umumiy summaning 66,1 foizini, depozitlari esa 239 492 milliard soʻmni, yaʼni tizim boʻyicha umumiy summaning 52 foizini tashkil etadi. Davlat banklari uchun LTD koeffitsienti 175,6 foizga yetadi.

Ushbu guruhdagi yetakchi banklarning koʻrsatkichlarini koʻrib chiqamiz. Oʻzmilliybank yetakchi mavqega ega. Uning kredit portfeli 107 490 milliard soʻmni, depozit portfeli esa 55 326 milliard soʻmni tashkil etib, LTD koeffitsienti 194,3 foizga teng. Bank faoliyati, asosan, yuridik shaxslarga yoʻnaltirilgan: biznes kreditlari 83 982 milliard soʻmni yoki 78,1 foizni, korporativ depozitlar esa 36 588 milliard soʻmni yoki 66,1 foizni tashkil etadi.

Agrobankning LTD koeffitsienti 217,2 foizni tashkil etadi, kreditlar hajmi 90 857 milliard soʻm, depozitlar hajmi esa 41 839 milliard soʻmga teng. Bank qishloq xoʻjaligi sektorini qoʻllab-quvvatlash boʻyicha davlat dasturlarini faol amalga oshirib, maqsadli budjet resurslarini jalb qilmoqda. Shunisi eʼtiborga loyiqki, Agrobankning jismoniy shaxslar depozitlari 21 518 milliard soʻmni tashkil etib, yuridik shaxslar depozitlaridan — 20 321 milliard soʻmdan yuqori boʻlib, rivojlangan xizmat koʻrsatish tarmogʻini namoyish etadi. Oʻzsanoatqurilishbank sanoat sohasiga alohida eʼtibor qaratadi, yuridik shaxslarga berilgan kreditlar jami 61 190 milliard soʻmdan 51 167 milliard soʻmni tashkil etadi va uning LTD koeffitsienti 172,4 foizga teng.

Yirik davlat banklari orasida Xalq bankining koʻrsatkichlari alohida ajralib turadi: uning kreditlari 37 080 milliard soʻmni, depozitlari esa 30 871 milliard soʻmni tashkil etib, LTD koeffitsienti 120,1 foizga teng. Ushbu bank oʻz guruhida chakana kreditlarning eng katta ulushiga ega boʻlib, ular 25 334 milliard soʻmni yoki 68,3 foizni tashkil etadi. Bu holat bankning pensiya va nafaqalarni toʻlash bilan bogʻliq ijtimoiy funksiyalari bilan izohlanishi mumkin.

Boshqa banklar toifasida holat oʻziga xos xususiyatlarga ega boʻlib, ushbu guruhga asosan xususiy, aksiyadorlik va xorijiy banklar kiradi. Ularning umumiy kreditlari 215 536 milliard soʻmni, depozitlari esa 221 107 milliard soʻmni tashkil etadi. LTD koeffitsienti 97,5 foizga teng. Bu bozor tamoyillariga yaqin koʻrsatkich boʻlib, xususiy bank sektori oʻzining faol operatsiyalarini jalb qilingan depozitlar orqali yuqori darajada qoplashini hamda moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanayotganini koʻrsatadi. Bundan tashqari, "boshqa banklar" muvozanatli kreditlash tuzilmasini namoyish etmoqda: jismoniy shaxslarga 108 749 milliard soʻm va yuridik shaxslarga 106 787 milliard soʻm miqdorida kreditlar ajratilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Oʻzbekistondagi tijorat banklarida depozitlar va kreditlarning dinamikasi hamda tuzilishini oʻrganish bir qator muhim xulosalar chiqarish imkonini beradi. Mamlakat bank tizimida kredit va depozit resurslari oʻrtasida sezilarli tarkibiy farqlar mavjud. Sektorning kreditlash salohiyati uning ichki depozit sigʻimidan yuqori boʻlib, bu holat 138,1 foizlik LTD koeffitsientida aks etadi. Ushbu nisbatning shakllanishida davlat ishtirokidagi banklarning ulushi yuqori boʻlib, ularning kreditlash faoliyati bozor jamgʻarmalari bilan bir qatorda davlat tomonidan moliyalashtirish va tashqi kredit resurslari orqali ham qoʻllab-quvvatlanadi. Shu bilan birga, xususiy moliya institutlari — "boshqa banklar" yuqori moliyaviy barqarorlikni va kreditlarni depozit resurslari bilan yuqori darajada qoplashni namoyish etadi hamda bu holat LTD koeffitsientining 97,5 foizga tengligi bilan ifodalanadi.

Moliyaviy barqarorlikni yanada mustahkamlash va ichki moliyalashtirish manbalari salohiyatini kengaytirish uchun depozitlarni banklar uchun uzoq muddatli mablagʻlarning asosiy manbalaridan biriga aylantirish maqsadga muvofiqdir. Bu yuqori daromadli uzoq muddatli depozitlarni joriy etish, raqamli jamgʻarma mahsulotlari turlarini kengaytirish va jamoatchilik ishonchini oshirish uchun depozitlarni kafolatlash tizimini yanada takomillashtirishni talab qiladi. Davlat banklarini xususiylashtirish jarayonlarini izchil davom ettirish banklar faoliyati uchun teng raqobat sharoitlarini kengaytiradi, ularni mijozlar bazasi uchun faol raqobatlashishga undaydi hamda majburiyatlar tuzilmasini optimallashtirish imkoniyatlarini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Стиглиц Дж. Э. Экономика государственного сектора / пер. с англ. — М.: Изд-во МГУ, ИНФРА-М, 2000. — С. 245–260.
2. Мишкин Ф. С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков / пер. с англ. — 11-е изд. — М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2016. — С. 312–335.
3. Роуз П. С., Худжинс С. Б. Банковский менеджмент и финансовые услуги / пер. с англ. — М.: Дело, 2013. — С. 185–210.
4. Банковское дело: современная система кредитования: учебное пособие / О. И. Лаврушин, О. Н. Афанасьева. — М.: КНОРУС, 2018. — 264 с. — С. 94–112.
5. Банковское дело: учебник / под ред. Г. Г. Коробовой. — 2-е изд., перераб. и доп. — М.: Магистр; ИНФРА-М, 2015. — 592 с. — С. 204–222.
6. Деньги. Кредит. Банки: учебник для вузов / под ред. Е. Ф. Жукова. — 4-е изд. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2019. — 575



- c. — C. 145–163.
7. Abdullaeva Sh. Z. Bank ishi: darslik. — Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2017. — 584 b. — B. 115–130.
 8. Omonov A. A. Tijorat banklari kapitallashuvini ta'minlash yo'llari: monografiya. — Toshkent: Moliya, 2019. — 180 b. — B. 78–95.
 9. Karaliev T. M. Pul-kredit siyosati: o'quv qo'llanma. — Toshkent: TMI, 2021. — 210 b. — B. 62–80.
 10. Omanov R. F. Understanding Financial Performance: Key Metrics and How to Calculate Them // European Journal of Business Startups and Open Society. — Vol. 4, № 3. — P. 330–333.
 11. Omanov R. F. O'zbekistonda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda bank tizimining o'rni // Science and Education in Agriculture. — Vol. 9, № 9. — P. 126–130.
 12. Omanov R. F. Raqamli moliya xizmatlarining rivojlanishi va uning iqtisodiyotga ta'siri // Science and Education in Agriculture. — Vol. 9, № 9. — P. 141–145.
 13. Omanov R. F. O'zbekistonda islom banklarini rivojlantirishda qimmatli qog'ozlar bozorining o'rni // Development of Science. — Vol. 6, № 1. — P. 279–285.
 14. Omanov R. F., Umarzhonovna N. G. Economic Aspects of the Development of Small Enterprises of the Kashkadarya Region // Academic Journal Incorporations. — 2023.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100